

OMMAVIY OFERTA

«Biznesni rivojlantirish banki» ATB mobil-banking ilovasidan foydalanish to‘g‘risida)

Toshkent sh.

Ushbu hujjat «Biznesni rivojlantirish banki» ATB, bundan buyon matnda – “Bank”ning bank (O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklari tomonidan emissiyalangan) kartasiga ega bo‘lgan yuridik salohiyatli, bundan buyon matnda “Mijoz” deb ataluvchi istalgan jismoniy shaxsga «**BRB**» ATB mobil-banking ilovasidan foydalanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367- modda, 369-modda 2-qism va 370-moddasiga muvofiq xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma (bundan buyon matnda – Shartnoma) tuzish bo‘yicha rasmiy taklifi hisoblanadi.

Mijoz tomonidan ushbu Shartnomada ko‘zda tutilgan harakatlarning bajarilishi, uning quyida keltirilgan shartlarga so‘zsiz roziligi (Oferta aksepti)ni anglatadi. Oferta qabul qilingan vaqtidan boshlab Shartnoma tuzilgan sanaladi.

Shartnomada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan barcha holatlarda tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, hujjatlarning elektron almashinuvi va biznes oboroti qoidalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asoslanib harakat qiladilar.

1. ASOSIY ATAMA VA TUSHUNCHALAR

«Biznesni rivojlantirish banki» ATB mobil-banking ilovasi – mobil texnologiyalar negizida yaratilgan maxsus dasturiy ta‘minot bo‘lib, onlayn rejimida bank operatsiyalarini amalga oshirish, hisobvaraqlar holati to‘g‘risida ma’lumotlar olish va boshqa ma’lumotlarga ega bo‘lish hamda «Biznesni rivojlantirish banki» ATBning funksional mobil-banking ilovasida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish uchun mo‘ljallanadi.

Mijoz – tadbirkorlik subyektlari, bank kartasining egasi.

Bank kartasi – operatsiyalarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan, onlayn rejimida ishlaydigan bank to‘lov kartasi, O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan emissiya qilinadi va «Biznesni rivojlantirish banki» ATB mobil-banking ilovasida ro‘yxatga olinadi.

Shaxsga doir ma’lumotlar — muayyan bir jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan va uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi axborotlar, «Biznesni rivojlantirish banki» ATB mobil-banking ilovasidan foydalanish maqsadida Mijoz tomonidan taqdim etiladi.

Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish – shaxsga doir ma’lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, qo‘llash, taqdim etish, tarqatish, uzatish, egasizlashtirish va yo‘q qilishga doir bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirish.

Uchinchi shaxslar – agar amaldagi qonun hujjatlarida boshqasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, Bank va Mijozdan tashqari barcha o‘zga shaxslar.

2. AKSEPT TARTIBI

2.1. Ushbu Ofertaning aksepti Mijozni «Biznesni rivojlantirish banki» ATB mobil-banking ilovasida (bundan buyon matnda – Ilova) ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ilovadan iOS, Android platformalari orqali va veb www.br.buz manzili bo‘yicha foydalanish mumkin.

2.2. Ushbu Shartnomani tuzish bilan Mijoz shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun talablariga muvofiq o‘z shaxsiy ma’lumotlari (shu jumladan, quyidagilarni istisno qilmagan holda: to‘lovlarning hisob ma’lumotlari, mobil telefon raqami, bank kartalari raqamlari, FISh, ro‘yxatga olish raqamlari, shuningdek, Ilovadagi xizmatlardan foydalanish uchun zarur bo‘ladigan boshqa har qanday shaxsiy ma’lumotlar)ga ishlov berilishiga, shuningdek, ushbu shartnomaning shartlarini bajarish maqsadida avtomatlashtirish vositalaridan foydalanish yoki bunday vositalardan foydalanmagan holda amalga oshiriladigan shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish, qayd qilish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), chiqarib olish, qo‘llash, uzatish (tarqatish, taqdim etish, ochish), shaxssizlashtirish, bloklash, o‘chirib tashlash, yo‘q qilishga doir bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirishga muddatsiz rozilagini beradi.

Ushbu bilan Mijoz uning tomonidan ushbu Shartnomaga muvofiq bankka taqdim etilgan har qanday shaxsiy ma'lumotlarni ushbu Shartnomaning shartlarini bajarish maqsadlarida uchinchi shaxslarga uzatilishiga rozilik bildiradi.

2.3. Bank Mijozga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash bo'yicha barcha zarur choralarni qabul qilishini kafolatlaydi. Mijozning o'z shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlanishiga roziliği muddatsiz hisoblanadi, ayni vaqtida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish uchun rozilik Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning 7.3-bandiga muvofiq, istalgan vaqtida chaqirib olinishi ham mumkin.

2.4. Ushbu Ommaviy ofertani akseptlash orqali, Mijoz:

2.4.1. shartlar bilan tanishib chiqqani va quyidagilarga o'z roziliginibildiradi, ya'ni:

- Arizada ko'rsatilgan har qanday ahamiyatlari o'zgarishlar haqida Bankni zudlik bilan yozma ravishda xabardor qiladi;

- Login, Parol yoki Tekshiruv kodini kiritish bilan bog'liq barcha harakatlar hamda tasdiqlovchi darchada bajariladigan barcha harakatlar shaxsan Mijoz tomonidan amalga oshiriladi;

- kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnomalar va h.k.ni tuzish va bajarish maqsadlarida Bank Mijozga va/yoki kreditlar obyektiga (zaruriyat bo'lsa) va/yoki kafil bo'luvchiga taalluqli barcha zarur axborotlarni (kredit hisoboti/kredit tarixi/ma'lumotlari va b.) O'zR Markaziy banki huzuridagi Kredit axboroti davlat reestri va/yoki "O'zR kreditlar byurosi" MChJ, Kredit axboroti tahliliy markazi va boshqa tashkilot hamda banklarga uzatish va/yoki olish huquqiga ega;

- davlat soliq xizmati organlarining Ma'lumotlarga ishlov berish markazidan olingen shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishga haqlidir.

2.5. Ilovadan foydalanishni boshlashdan avval ushbu Ofertaning matni bilan to'liq tanishib chiqish talab etiladi. Oferta shartlariga to'liq yoki uning biror qismiga qo'shilmaslik holatlarida Ilovadan foydalanishdan o'zingizni cheklab turish talab etiladi.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Ilova O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan emissiya qilingan plastik kartalarning Mijoziyaliga tovar, xizmatlar va ish uchun onlayn rejimida to'lovlarni amalga oshirish, o'z bank kartalarini boshqarish, bank kartalari orqali onlayn rejimida pul mablag'larini qabul qilish/jo'natish, Bank mahsulotlar (kreditlar)ini olish va ulardan foydalanish hamda funksional Ilovada nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

3.2. Ilova Bankning Mijoziyalarga taqdim etilishi mumkin bo'lgan kredit mahsulotlari xizmatlarini ham o'z ichiga olishi mumkin. Bunday xizmatlarni faollashtirish Mijoz tomonidan www.brz.uz saytida joylashtirilgan, xizmatlar, ularni taqdim etish shartlari, foydalanish narxlari va boshqa axborotlar ko'rsatib berilgan «Biznesni rivojlantirish banki» ATBning bank xizmatlari va mahsulotlari bo'yicha Bosh (asosiy) shartlari (bundan buyon matnda – BSh) bilan to'liq tanishib chiqilgandan so'ng ixtiyor ravishda, mustaqil amalga oshiriladi.

3.3. Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

3.3.1. Bank bilan Mijoz o'rtaida tuzilgan bitim/shartnomalar hamda Bank hamkorlari bilan tuzilgan kelishuvlar doirasida qabul qilingan Bank majburiyatlarining talab darajasida bajarilishi, shuningdek Mijozning identifikatsiyasi/soddallashtirilgan identifikatsiyasini o'tkazish, Mijozga Bank tomonidan taklif etiladigan barchaga ochiq bo'lgan bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish maqsadlarida;

3.3.2. Kommunikatsiyalar. Mijoz bilan aloqa o'rnatish uchun, xususan Bankning bank xizmatlaridan foydalanishga oid xabarnomalari, so'rov va axborotlarini jo'natish, shuningdek, Mijoziyan kelgan talab va arizalarni ko'rib chiqish, shu jumladan bunday talab va arizalarni kontragentlar/Bank hamkorlariga bajarish maqsadida kelgusi uzatish;

3.3.3. Bank xizmatlari sifatini yaxshilash, ulardan foydalanishni qulaylashtirish, yangi bank xizmatlarini ishlab chiqish, Mijozga Bank tomonidan xususiyashtirilgan bank xizmatlarini taklif

qilish;

3.3.4. Egasizlantirilgan ma'lumotlar asosida statistik va boshqa tadqiqotlarni o'tkazish;

3.3.5. Marketing aksiyalari, so'rovnomalar, Mijozdan / uning uchun so'rovlari o'tkazish, xususan yangi bank xizmatlaridan foydalanish bo'yicha takliflarni keng yoyish;

3.3.6. Ilovadan foydalangan holda qonun hujjatlariga yoki shartnoma talablariga zid keluvchi harakatlarni amalgalashiga oshirilishiga yordam beruvchi xatti-harakatlarning oldini olish.

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Bank quyidagilarga majbur:

- Ilovaning talab darajasida ishslashini ta'minlab berish, Ilovaning ishidagi uzilishlar uchinchi shaxslar/teknik va profilaktik ishlari tufayli yuzaga keladigan holatlar bundan istisno;

- shaxsga doir ma'lumotlarning butligini va yaxlitligini ta'minlab berish, shaxsga doir ma'lumotlarning qonunga xilof tarzda qayta ishlanishining oldini olishni ta'minlab beruvchi shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va texnik choralarini qabul qilish;

-Mijozni Bankdagi yangiliklar, Mijoz Ilova orqali to'lovlarni amalgalashiga oshira oladigan tovar va xizmat/ishlarning yetkazib beruvchisi sifatidagi Bank Hamkorlari haqida, shuningdek, Ilovada joriy etiladigan o'zgarishlar va yangiliklar haqida o'z vaqtida xabardor qilish.

4.2. Mijoz:

- ushbu Oferta talablarini bajarishi shart;

- Ilovaga kirish imkonini beruvchi qurilmaning axborot xavfsizligini mustaqil ravishda ta'minlashi zarur;

- ushbu Shartnoma imzolanganidan so'ng mijoz autentifikatsiya ma'lumotlarining butligi uchun, ularning uchinchi shaxslarga uzatilishi va mana shu ma'lumotlardan foydalangan holda Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun shaxsan javobgar bo'ladi;

- Ilovadan foydalanish orqali u yuridik layoqatga egaligini, shuningdek, Ilovadan biror-bir firibgarlik yoki qonunga xilof maqsadlarda foydalanish maqsadlari yo'qligini tasdiqlaydi va kafolatlaydi;

- Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan o'zi haqidagi ma'lumotlar shubhasiz to'g'ri, aniq, ishonchli, haqqoniyligini va Mijozning xohishiga mos kelishini kafolatlaydi. Shuningdek Mijoz tomonidan Bankka noto'g'ri, yolg'on, to'liq bo'limgan ma'lumotlar berilishining salbiy oqibatlarini yaxshi tushunadi;

- Mijoz mazkur hujjatni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib imzolaydi, uchinchi shaxslarning manfaatlaridan kelib chiqib harakatlarni amalgalashiga oshirmaydi va soxta banklar va shaxslar bilan hamkorlik qilmaydi;

- Bank tomonidan oldindan yozma rozilik olmasdan turib, Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga berish huquqiga ega emas. Bunday harakatlar bo'yicha har qanday urinishlar kuchga ega bo'lmaydi va Ilova orqali amalgalashiga oshirilgan barcha harakatlar Mijoz tomonidan ixtiyor tarza bajarilgan deb hisoblanadi.

4.3. Bank ushbu Ofertaga bir taraflama tartibda o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega, bu haqda u Mijozni mazkur o'zgarishlarni www.brb.uz saytida, Ilova interfeysida, axborot xabarlarida chop etish yo'li bilan yoki sms-xabarnomalar orqali xabardor qilishi zarur.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

5.2. Mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada

bajarmagani oqibatida yuzaga kelgan har qanday ziyonlar yoki salbiy oqibatlar uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.

5.3. Mijoz o‘z shaxsiy ma’lumotlarini himoyalanmagan ulanishlardan foydalanuvchi yoki zarar yetkazuvchi dasturlar va ilovalar xavfi bo‘lgan qurilmaga kiritishda ularning saqlanishi uchun to‘liq javobgar bo‘ladi.

5.4. Bank Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmagani uchun javobgar bo‘lmaydi, agar bu holat Mijoz tomonidan Shartnoma shartlarining bajarilmasligi oqibati bo‘lsa.

5.5. Bank Mijoz ushbu Oferta shartlari bilan, shuningdek kredit mahsulotlari va ularni Ilovada faollashtirish shartlari bilan tanishib chiqmagan va (yoki) o‘z vaqtida tanishib chiqmasligi bilan bog‘liq Mijozda yuzaga kelgan har qanday ziyonlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

5.6. Bank Shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmagani uchun javobgar bo‘lmaydi, agar bunday holatlar Bank nazoratidan tashqarida bo‘lgan sabablar oqibatida kelib chiqqan bo‘lsa. Bankning nazorat doirasi aynan Ilovaning ish qobiliyati bilan cheklanadi va uchinchi shasxlarning aybi bilan, yoki davlat organlari yoki sud hokimiyyati tomonidan qo‘yilgan taqiq va cheklovlar natijasida yuzaga kelgan uzilishlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

5.7. Ilovaning barcha axborot oqimi, xususan talab bo‘yicha yoki Ilova orqali taqdim etiladigan, kirish mumkin bo‘lgan barcha kontent, dasturiy ta’midot, funksional, materiallar va axborotlar “boricha” ya’ni hech bir o‘zgartirishlarsiz, hech qanday olib tashlash va to‘ldirishlarsiz taqdim etiladi.

5.8. Bank Ilovadan foydalanish mumkin bo‘lgan xizmatlar yoki kontent, materiallar, axborotlar va funksional bo‘yicha yoki ushbu Shartnomada ko‘zda tutilmagan usullar bilan Ilovadan foydalanish yo‘li bilan maxfiy ma’lumotlarni uzatish orqali yuzaga kelgan har qanday himoya buzilishlari bo‘yicha hech qanday va’dalar yoki kafolatlarni bermaydi.

5.9. Bank Mijoz oldida yoki uchinchi taraf oldida qanday holatda ro‘y bermasin, har qanday ziyon va yo‘qotishlar uchun, xususan, biroq cheklanmagan holda, Mijoz tomonidan Ilova orqali Sotuvchidan tovarlar (ish, xizmatlar)ning sotib olinishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan foydaning yo‘qotilishidan kelgan, obro‘siga putur yetkazilishi oqibatidagi yoki boshqa har qanday zararlar uchun, shuningdek, Ilova orqali olingan, sotib olingan yoki puli to‘langan istalgan tovar (ish, xizmat, axborot, kontent) uchun javobgar bo‘lmaydi.

5.10. Har bir Tomon ushbu Shartnomada belgilangan javobgarlik uchun cheklovlar mavjud ekanini ikkinchi Tomon tan olgan holda Shartnomani imzolashini tushunadi va bu cheklovlar tomonlar o‘rtasidagi kelishuvlarning muhim asosi ekanini, bunda har ikki Tomon bunday holatlar taraflarning ongli nazoratidan tashqarida bo‘lgan sharoitlar oqibatida, ya’ni hukumatning maxsus xatti-harakatlari yoki terroristik harakatlar, zilzila, yong‘in, suv toshqinlari yoki boshqa tabiiy ofatlar, yana mehnat sharoitlari bilan, ta’midotdagi uzilishlar va Internetga ulanishdagi buzilishlar kabi vaziyatlarga bog‘liq yuzaga kelishi tufayli majburiyatlarning bajarilmasligi yoki kechiktirilishi uchun hech bir Tomon javobgar bo‘lmasligini tan oladi.

6. INTELLEKTUAL (AQLIY) MULK

6.1. Ilova, uning tarkibi, tuzilmasi va dizayni Bankning mualliflik huquqi bilan to‘liq himoya qilinadi. Shuningdek, Bankning mutlaq huquqi Bank tomonidan yaratilgan va ro‘yxatga olingan har qanday Intellektual mulk, shuningdek, uning tovar belgilari uchun ham taalluqlidir.

6.2. Bankning mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulki huquqlari mazkur Ilova uchun hamda uning to‘liq (mahsulotlar va xizmatlarni ham qo‘shgan holda) kontenti uchun ham taalluqli hisoblanadi.

6.3. Ushbu Shartnomadagi har qanday axborot/kontentlardan, Bank tomonidan yaratilgan logotip, znachok, grafik, surat, patent, xizmat/tovar belgisi, dizayn, vizual mediadan va boshqa intellektual mulkdan (ro‘yxatga olingan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilmagan) ruxsatsiz foydalanish, qayta ishslash yoki chop etish (ijtimoiy tarmoqlarni ham qo‘shgan holda) Bankning oldindan yozma rozilgisiz

man etiladi.

6.4. Ilovadagi Intellektual mulkka havola foydalanuvchi uchun uni qo'llashga ruxsat taqdim etilganini anglatmaydi. Mijoz tomonidan tijorat maqsadlarida Ilovadan har qanday ma'lumotni yuklab olish (foydalanish) yoki ko'chirib olish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini buzish deb tushuniladi.

6.5. Ushbu Oferta qoidalarining birortasi ham Bankning ushbu bo'limda ko'rsatilgan intellektual mulkidan foydalanish uchun sizga huquq yoki ruxsatnomha bermaydi.

7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

7.1. Mijoz istalgan vaqtida Shartnomani bajarishdan voz kechishi mumkin, buning uchun Ilovani akkauntidan o'chirib tashlaydi.

7.2. Akkaunt o'chirib tashlangan vaqtdan boshlab Shartnomani bekor qilingan hisoblanadi. Ushbu Shartnomaning bekor qilinishi Ilova doirasidagi kredit mahsulotlari bo'yicha Shartnomaning tugatilganini anglatmaydi, agar bunday xizmatlar faollashtirilgan bo'lsa.

7.3. Mijoz o'z shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlanishiga roziligincha qo'shib olish huquqiga ega, bu haqda u Shartnomaning 10-bo'limida ko'rsatilgan manzil bo'yicha elektron pochtaga xat jo'natadi.

8. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

8.1. Mazkur Shartnomani bo'yicha yuzaga keladigan har qanday kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan yoki Mijozining murojaati asosida da'volarni ko'rish tartibiga binoan hal qilinadi. Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari va unga bo'lgan talablar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilab beriladi.

8.2. Agar yuzaga kelgan kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal qilinmasa, u holda Bank ro'yxatdan o'tgan manzil bo'yicha tegishli sudda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari ko'zda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

8.3. Mijoz bilan da'volar bo'yicha ishlash va Mijozi texnik yordam ko'rsatish xizmatlari bevosita tegishli talablarni qabul qilish, ularni ishslash va kelib tushgan talablarga javoblarni yuborish orqali taqdim etiladi. Mijozlardan talablar elektron pochta orqali yoki shartnomaning 10-bo'limida ko'rsatilgan telefon raqamlari orqali qabul qilinadi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Bank bilan Mijoz o'rtasidagi ushbu Ommaviy ofertada bayon qilinmagan boshqa barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

9.2. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunlariga muvofiq ushbu bilan Mijoz ixtiyoriy ravishda, o'z xohishiga binoan va o'z manfaatlari yo'lida Bankka uchinchi shaxslarga bank sirini tashkil etgan va shaxsga doir ma'lumotlarga oid axborotlarni, shuningdek Bank o'z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'ladigan boshqa qonun bilan himoyalangan sirlarni taqdim etishiga rozilik beradi.

9.3. Tomonlar hujjatlarni elektron shaklda, shu jumladan Ilova orqali to'ldirilgan va tuziladigan hujjatlarni ham oddiy yozma shaklda tuzilgan hujjatlar sifatida tan olishga kelishib olganlar.

9.4. Agar ushbu Ommaviy ofertaning biror-bir qoidasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari muvofiq ravishda noqonuniy deb topilsa va/yoki o'z kuchini yo'qotsa, Ommaviy ofertaning bunday qoidalari Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llanilmaydi va Ommaviy ofertada qayd etilgan dastlabki maqsadlarga maksimal darajada javob beradigan boshqa yangi qoidalari bilan almashtiriladi. Ommaviy ofertaning boshqa qoidalari o'zining yuridik kuchini va haqiqiyligini to'liq saqlab qoladi.

9.5. Ushbu Ofertaning akseptlash orqali Mijoz Shartnomaning barcha shartlariga o'z roziliginini beradi va ularni bajarish majburiyatini zimmasiga oladi.

10. BANK REKVIZITLARI